

STOMATOLOGIYANING PAYDO BO'LIH TARIXI

Mardanov Abdulatif Abdularimovich

Toshkent davlat stomatologiya instituti

m54149076@gmail.com

Komila Dekanovna Alimova

Toshkent davlat stomatologiya instituti"

O'zbek tili va pedagogika" kafedrasida katta o'qituvchisi.

komiladekanovna@gmail.com

Xazratov Abdurashid Bahodir ugli

Toshkent davlat stomatologiya instituti

rashidbekkhazratov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada stomatologiya faning vujudga kelishi uning dastlabki davri va tarixan rivojlanishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Stomatologiya, stomatos, tibbiyot, jag', tish, og'iz bo'shlig'i, tish shifokori, shifokorlar.*

STOMATOLOGIYA (yun. stomatos — og'iz va logiya) — klinik tibbiyotning bir sohasi; og'iz bo'shlig'i a'zolari: til, lab, lunj, og'iz shilliq pardalari hamda yuzjag' sistemasi va unga yondosh soha kasalliklarini, ularni keltirib chikaradigan sabablarni va mazkur kasalliklarning oldini olish usullarini o'rganadi.

Tish shifokori atamasi fransuzcha tish shifokori so'zidan olingan bo'lib, tish uchun fransuzcha va lotincha atamalardan olingan. Tishlarni ilmiy o'rganish odontologiya deb ataladi. Tishlarning tuzilishi, rivojlanishi va anomaliyalarini o'rganishdir. Tish shifokorligi ko'pincha og'iz bo'shlig'i bilan bog'liq amaliyot sifatida aniqlanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, og'iz kasalliklari ularning global tarqalishi va ko'rsatkichlari yuqori bo'lgani sababli xalq salomatligi bilan bog'liq muhim masalalardir. Kambag'allarga boshqa ijtimoiy-iqtisodiy guruhlariga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Tish og'riganda yoki u bilan biron boshqa muammolar paydo bo'lganida, buni darhol bartaraf etishga harakat qilamiz. Qadimgi davrlarda ham odamlar xuddi shunday qilgan. Shuning uchun stomatologiya sivilizatsiya paydo bo'lishi bilan rivojlana boshlagan. Stomatologlar shifokorlar paydo bo'lgandan beri bor. Qadimgi davrda tishlarni parvarish qilishning 52 qoidasi bo'lganini isbotlovchi tarixiy hujjatlar topilgan va ularda tishni qanday qilib oqartirish, hatto to'g'ri nafas olish haqida ham maslahatlar berilgan.

Albatta, o'sha vaqtlarda tish va uni davolash bilan bog'liq bilimlar yetarli bo'lmagan

Xitoyda, Hindistonda va Vavilonda tish og'rig'ini qoldirish uchun, har xil vositalardan foydalanganlar. Gippokrat tish og'rig'ini qoldirish uchun qon chiqarish, kuchsiz ko'ngil aynituvchi dori vositalar va maxalliy qalampir va kvarsdan (achchiq tosh) foydalangan. Ulug' daholar Abu Ali Ibn Sino (980—1037), Abdul Qozim (936—1013) tish va og'iz bo'shlig'i kasalliklarini davolash, tishlarni olib tashlash uchun maxsus asboblar, omburlar ishlab chiqargan va bu ishlarni bajarish tabiblar, sartaroshlar zimmasida bo'lgan. XIV asrda fransuz vrachi Gide Sholiak tish sug'uradigan asbob ixtiro qildi. XV asr oxirida italyan vrachi J. D. Arkale tishni oltin, qo'rg'oshin va qalay folgasi bilan plombalash mumkinligini ko'rsatadi. XVIII asrda Fransiyada tish shifokorligi ajralib chiqib, xirurg-dantist mutaxassisligi berilib, unga alohida imtihon joriy etilgan. Bunda Pyer Fosharni xizmatlari bo'lib, u ilmiy tish shifokorligini asoschilardan biri hisoblangan. U klassik "Xirurg-dantist yoki tishlarni davolash" nomli asar yozgan. Pyer Fosharni bu kitobi XVIII asrda asosiy manba hisoblangan. Foshar tishlarni davolash uchun asbob-uskunalarni takomillashtirgan va yaratgan. U tishlarni charxlash uchun bormashinaga o'xshash borni aylantiruvchi asbobdan foydalangan. Tishlarni plombalash uchun har xil egilgan shtoferlardan foydalangan. Plombalovchi ashyo sifatida qo'rg'oshin, qalay va oltindan foydalangan. Davolangan tishlar 20—30 yil xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlagan 1770- yilda hozirgilarga yaqin plomba ashyolari paydo bo'la boshlagan. XIX asrda fransuz shifokorlari Arnazzan (1808) va Delabarr (1815)lar kariyes bo'shliqlarini davolash va plombalash usullarini taklif qilganlar. Delabarr emal pichoqlari bilan bo'shliqlariga ishlov bergan va pulpitlarni davolashda pulpani kuydirib, ustidan oltin fal'ga bilan yopgan. Kuydirishda qizigan simni pulpaga tiqib maqsadga erishgan. Shu paytda, boshqa fransuz shifokori Darsse tarkibi 8 qism vismut, 5 qism qo'rg'oshin va 3 qism sink (rux) va yengil eruvchi metaldan bo'lgan plomba ashyosini yaratgan. Bu keng qo'llanilgan. Renar esa bunga bir qism simob qo'shib amalgamani yaratilishiga sababchi bo'lgan.

XVII-XVIII asrlarga kelib Stomatologiya klinik tibbiyotning mustaqil sohasiga aylandi. 19-a. da tishni plombalash va yasama tishlar tayyorlash texnikasi puxta ishlab chiqildi. XIX asr oxiri —XX asrning birinchi yarmida fiziologiya, anatomiya, patologiya, biokimyo va boshqa fanlarning taraqqiyoti stomatologik kasalliklar etiologiyasi, patogenezini, davolash choralarini va profilaktika tadbirlarini ishlab chiqishda muqim ahamiyat kasb etdi.

1810- yillarda Rossiyada tish shifokorligi rivojlana boshlangan. 1923- yildan boshlab, institut direktori Aleksandr Ivanovich Evdokimov bo'lgan. 1935- yilda "Moskva o'quv stomatologiya instituti" ga aylantirilgan, ya'ni xuddi shu yildan boshlab "stomatologiya", "odontologiya" iboralari o'rniga "stomatologiya" so'zi bilan aytila boshlangan va tugatganlarni "shifokor-stomatolog" deb atay boshlashgan. Ushbu institutda 1937- yilda xirurgik (mudir A.I.Evdokinov), 1938- yilda terapevtik (mudir dos. Ya.S.Pekker), ortopedik (mudir M.S. Nemo- nov) stomatologiya kafedralar tashkil topgan. 1949- yil 20- sentabrda Moskva stomatologiya instituti (MSI) "Moskva tibbiyot stomatologiya instituti" (MMSI) ga aylantirilgan va uning tarkibida davolash va boshqa fakultetlar ham ochilgan. Shu yildan, o'qish muddati 5 yil deb belgilangan, institutga yana A.I. Evdokimov rahbarlik qila boshlagan.

1954- yilda, o'sha paytdagi ToshMlda xirurg-stomatolog, dotsent, Mixail Vladimirovich Paradoksovning stomatologiya fakultetini ochilishiga xizmat qo'shdi. Toshkent tibbiyot institutida terapevtik stomatologiya kafedrasini birinchi bor 1956- yilda ochildi. Birinchi kafedra mudiri bo'lib, dotsent A.T. Busigin (1956—1957) ishlagan. Keyinroq kafedrani M.V. Busigina (1956—1959, 1965—1966) boshqargan. 1966—1967 va 1990—1991- yillarda kafedra mudiri bo'lib professor V.A. Yepishev ishlagan. 1992- yildan boshlab terapevtik stomatologiya kafedrasini tibbiyot fanlari doktori, professor Safarov Toshpo'lat hamdamovich boshqargan.

1965—1967- yillar mobaynida birinchi bo'lib assistentlar Yu.H. Yunusov, T.X. Safarov, V.S. Kargin, I.G. Giyasovlar kandidatlik dissertatsiyalarni yoqladilar. Terapevtik stomatologiya kafedrasida ko'p yillar assistent lavozimida L.N. Popova, G.F. Chernankov, L.S. Alpayeva, S.P. Yurkova, A.T. Turabov, T.M. Shualova, I.G. Grigoryan, F.I. Xersonskaya, I.F. Yunusova, L.L. Volk, S.N. Allaxverdova, S.I. Bektashev, T.N. Petergburg va boshqalar ishlab kelganlar.

1974- yilda terapevtik stomatologiya kafedrasini ikkita kafedraga bo'lindi: propedevtika kafedrasiga mudir professor V.A.Epishev va gospi- tal terapevtik stomatologiya kafedrasini mudir dotsent T.X.Safarovlar tayinlandilar.

Zamonaviy davr: So'nggi o'n yilliklarda stomatologiya texnologiya va tadqiqotlardagi yutuqlar bilan rivojlanishda davom etdi. Raqamli tasvirlash, lazer stomatologiyasi, kompyuter yordamida loyihalash va ishlab chiqarish (CAD/CAM) tizimlari va boshqa innovatsion texnikalar sohani o'zgartirdi. Shuningdek, profilaktik stomatologiyaga, ta'lim va erta aralashuv orqali og'iz bo'shlig'i salomatligini mustahkamlashga e'tibor kuchaymoqda. Bugungi kunda stomatologiya umumiy stomatologiya, ortodontiya, periodontologiya, endodontiya, og'iz

bo'shlig'i jarrohligi va boshqalarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli stomatologiya mutaxassisliklarini o'z ichiga oladi. Tish parvarishi va bemorlarning natijalarini yaxshilashga qaratilgan doimiy tadqiqotlar va texnologik innovatsiyalar bilan soha taraqqiyotda davom etmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mixolchenko V.F. Tish kariesi va uning asoratlari tashxisi va qiyosiy tashxisi. O 'quv qo'llanma. - M.: - M:AOR «N PP «Djangan». - 2006. - 104 b.
2. Muravyannikova J.G. Stomatologik fizioterapiya asoslari. Seriya «Tibbiyot siz uchun». Rostov n/D: «Feniks», 2002. — 320 b
3. Халилови. Х. вабошк. “Болалар терапевтик стоматологияси ва стоматологии касалликлар профилактикаси” , Тошкент, 2007
4. Zimmer S. et. Al “Welche Zahnpaste bietet den besten schutz for kanes?” , Berlin, 1994
5. Старовойтова Е. Л., Антонова А. А., Стрельникова Н. В Обзор литературы: кариес зубов детей раннего возраста как социально значимая проблема здравоохранения. // Дальневосточный медицинский журнал. 2018. № 3. С. 106-111
6. K.D.Alimova. Til bilish dunyoni bilishdir. SCIENCE AND EDUCATION. SCIENTIFIC JOURNAL ISSN 2181-0842. VOLUME 3, ISSUE 4 734 -737 betlar.
7. K.D. Alimova. Zamonaviy texnologiyalardan ta`lim jarayonida foydalanish. “INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/5” Page No.: 57-61 betlar.
8. K.D.Alimova. “Interviews of in uzbeklanguage problems and objectives”. Internatsional journal on integrated Education. Indoneziya 2020 yil. 88-90 betlar.
9. K.D.Alimova. “O'zbek tilida sitologiya terminlarining muammolari va vazifalari”. Namangan davlat ilmiy axborotnomasi. 2021 yil 1 son. 203-206 betlar.